

**AMALIY BEZAK DARSLARINI TASHKIL QILISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI****Xolbekova O'g'iloy Isroil qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchi-assistent***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:03.09.2025**Revised: 04.09.2025**Accepted:05.09.2025***KALIT SO'ZLAR:***Amaliy bezak, raqamli
texnologiyalar, ta'lim,
dizayn, ijodiy faoliyat,
sun'iy intellekt, grafik
dasturlar, masofaviy
o'qitish.**Ushbu maqolada amaliy bezak darslarini tashkil
qilishda raqamli texnologiyalarning o'rni, ularning
ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi va
samaradorlikka ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi.
Zamonaviy grafik dasturlar, virtual o'quv muhiti,
sun'iy intellekt asosidagi ilovalar, shuningdek,
interaktiv o'qitish vositalari yordamida amaliy
bezak san'atini o'qitishning yangi yondashuvlarini
ochib beradi. Maqolada raqamli texnologiyalar
o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish,
ularni amaliy faoliyatga jalb qilish va ta'lim sifatini
oshirishdagi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.***Kirish**

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Bu texnologiyalar o'qitish uslublarini yangilash, darslarning interaktiv va qiziqarli bo'lishiga erishish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, amaliy bezak san'ati kabi vizual va estetik yo'nalishdagi fanlarda raqamli texnologiyalar o'quvchilarni motivatsiyalash, ularga zamonaviy dizayn ko'nikmalarini singdirish va ijodiy faoliyatga jalb qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Mazkur maqolada amaliy bezak darslarini tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari, ularning afzalliklari, qo'llanilishi va ta'lim sifati hamda o'quvchilarning qiziqishi, bilim darajasi va amaliy ko'nikmalariga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Amaliy bezak darslari – bu o'quvchilarning tasviriy san'atga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy madaniyatimiz, an'analarimiz, naqshlarimiz va hunarmandchilik san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi muhim fanlardan biridir. Ushbu darslarda o'quvchilar: naqshlar yaratish; milliy bezaklar bilan tanishish; ranglar uyg'unligini anglash; kompozitsiya tuzish; milliy hunarmandchilik turlarini (do'zanda, zardo'zlik, ganchkorlik va b.) o'rganadilar. Bu darslar orqali estetik tarbiya bilan birga, o'quvchilarning kichik motorika harakatlari, tasavvuri, tafakkuri, sabr-toqati va ijodkorligi rivojlanadi. Amaliy bezak darslarida o'quvchilarga nafaqat chiroyli rasm chizish yoki naqsh ishlash o'rgatiladi, balki ular orqali madaniy merosni saqlash, milliy identitetni mustahkamlash va estetik didni shakllantirish maqsad qilinadi. Bu darslar orqali yosh avlod qadimiy naqshlar, atlas, adras, zardo'zlik kabi hunarmandchilik namunalari bilan tanishadi. Shu bilan birga, o'quvchilar ijodiy fikrlashni, g'oyani tasvirga aylantirishni va loyihalash asoslarini o'zlashtiradilar. Bu esa ularni nafaqat san'at sohasi, balki texnologik va dizayn yo'nalishlarida ham faol bo'lishlariga turtki beradi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi amaliy bezak darslari bilan raqamli texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi to'g'risida, keeling biz siz bilan hozir raqamli texnologiyalar haqida biroz to'xtalib o'tamiz.

Bugungi raqamli davrda ta'limga integratsiyalashgan texnologiyalar o'quvchilarga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Misol uchun, o'quvchi Adobe Photoshop dasturida naqshni raqamli formatda yaratib, uni turli yuzalarga joylashtirib ko'rishi, 3D vizualizatsiya orqali bezakning buyum ustida qanday ko'rinishini modellashi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy mobil ilovalar orqali naqshlar avtomatik tarzda takrorlanadi, ranglar uyg'unligi avtomatik tarzda tanlanadi va foydalanuvchi turli variantlar orasidan eng yaxshisini tanlay oladi. Bu texnologiyalar dars jarayonida vaqtni tejilishi, ijodiy g'oyalarni tezkor amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga keng kirib kelgan bo'lib, ularning amaliy bezak darslarida qo'llanilishi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

a) Vizual taqdimot va o'quv materiallari: Prezentatsiyalar (PowerPoint, Google Slides) orqali mavzularni rang-barang va tushunarli tarzda yetkazish. Video darslar yordamida naqsh chizish texnikasi, bezak yaratish bosqichlarini ko'rsatish. Grafik dasturlar (Adobe Illustrator, CorelDRAW, Canva) yordamida bezak namunalari chizish va modellashtirish.

b) Interaktiv darslar va masofaviy o'qitish

Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar orqali masofaviy amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Onlayn test va interaktiv o'yinlar (Kahoot, Quizizz) orqali darsni mustahkamlash.

c) Ijodiy ishlarni raqamlashtirish: O'quvchilarning ishlarini skanerlab yoki mobil ilovalar orqali raqamlashtirish, raqamli portfoliolar yaratish. Ishlarni onlayn ko'rgazmalar, tanlovlar orqali keng auditoriyaga taqdim etish.

d) Sun'iy intellekt va dizayn ilovalari: AI yordamida avtomatik bezak variantlari yaratish, naqshlar kompozitsiyasini taklif qilish.

Amaliy bezak darslarida raqamli texnologiyalarning quyidagi ijobiy jihatlarni ta'minlaydi:

- Darslarning interaktiv va qiziqarli bo'lishi;
- O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish;
- Zamonaviy grafik va dizayn dasturlarida ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Har bir o'quvchining o'z digital ish portfelini yuritish imkoniyati;
- O'quv materiallarining oson yangilanishi va ommalashuvi.

Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan loyihalar o'quvchilarni mustaqil ishlashga, tanqidiy fikrlashga va zamonaviy kompetensiyalarni egallashga yo'naltiradi. Misol uchun, QR-kodlar orqali topshiriqlar olish, onlayn formatdagi grafik tahrirlash mashg'ulotlari, dizayn asoslarining animatsiyali ko'rinishdagi tushuntirishlari — bularning barchasi darsni jonlantiradi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham monitoring va baholash jarayoni soddalashadi — maxsus ilovalar orqali o'quvchilarning ishlari tezda ko'rib chiqiladi, izohlar beriladi va baholanadi. Bunday yondashuvlar ta'limda adolatli va shaffof tizimni shakllantirishga xizmat qiladi

Xulosa

Shuningdek, amaliy bezak darslarida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan yondashuvini ham o'zgartirmoqda. Endilikda o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, ijodkor va yaratuvchiga aylanmoqda. Bu darslarda raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish orqali o'quvchilar o'z ishlarini nafaqat sinf ichida, balki global maydonda — ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim platformalari orqali namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, fikr almashish madaniyatini shakllantiradi va ijodiy tajriba orttirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu yondashuv asosida metodik qo'llanmalar, onlayn platformalar va milliy dizayn resurslarini jamlagan o'quv kontentlar yaratish ta'limda raqamli bezak darslarini tizimli ravishda joriy etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'zbek milliy san'atining zamonaviy talqinda rivojlanishiga va yosh avlod orasida uni qadrlash hissining kuchayishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, amaliy bezak darslarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish — bu nafaqat pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, balki yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish, ularning ijodiy qobiliyatini kuchaytirish va milliy

qadriyatlarimizni yangi shaklda targ'ib qilish imkonini beradi. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi nafaqat an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmaslik, balki raqamli texnologiyalarni ijodiy tarzda darsga integratsiya qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Jo'rayev A. Tasviriy san'at va amaliy bezak darslarining metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Karimova M. va boshq. Ta'limda raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
3. Normurodov Sh. Raqamli pedagogika va interaktiv metodlar. – Namangan: NamPI nashriyoti, 2023.
4. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
(<https://unesdoc.unesco.org>)
6. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) Framework. – Journal of Teacher Education, 2006.
7. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilarda kompozitsiyalar yaratish texnikasi. *Общество и инновации*, 5(9/S), 19-25.
8. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining zamonaviy yondashuvlari. *Общество и инновации*, 5(8/S), 274-278.
9. Халилов, Л. (2024). Rangtasvir mashg'ulotlari orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishning ilmiy nazariy asoslari. *Общество и инновации*,